

**ALEKSANDR FAYNBERG-IKKI XALQ MADANIYATINI BOG'LAGAN  
IJODKOR**

**Obidova Nafosat Qaxramon qizi**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Sharq filologiyasi 1-bosqich talabasi*  
nafosatobidova51@gmail.com Tel: +998950870817

*Ilmiy rahbar: Khamidova Nargiza Mirvaxidovna*

*O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti, Sharq filologiyasi fakulteti, Yapon kafedrası*  
mudiri Khamidovanargiza1979@gmail.com Tel: +998997997916

**ABSTRACT:** *Ushbu maqolada Aleksandr Arkadevich Faynbergning o'zbek va rus xalqlari o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashdagi o'rni, uning she'riy merosi, tarjimonlik faoliyati hamda adabiy jarayonga qo'shgan hissasi yoritiladi. Shoirning lirikasida milliy qadriyatlar va umumiy insoniy g'oyalar uyg'unligi ilmiy tahlil qilinadi. Faynbergning ijodi ikki xalq madaniyatini bog'lovchi muhim ma'naviy ko'priksifatida baholanadi.*

**KIRISH**

O'zbekiston adabiy hayotida millatlararo do'stlikni mustahkamlashda katta hissa qo'shgan ijodkorlarning biri Aleksandr Arkadevich Faynbergdir. U rus tilida ijod qilgan bo'lishiga qaramay, o'zbek xalqi ruhiyatini chuqur his qilgan, bu yerning madaniy muhiti, qadriyatlari va an'analarini qalbdan qabul qilgan ijodkor edi. Faynbergning asarlarida ikki xalqning mentaliteti, ruhiy olami va adabiy merosi bir butun tarzda qovushgan bo'lib, uning ijodi O'zbekiston–Rossiya madaniy aloqalari tarixida alohida o'rin egallaydi. Shoirning she'rlari samimiy ohangga, falsafiy mushohadaga, ruhiy tozalikka asoslangan. U hayotning oddiy voqealarini ham badiiy yuksaklikka ko'tara olgan, inson kechinmalarini lirizm bilan tasvirlagan. Tarjimon sifatida esa Faynberg o'zbek adabiyotining ko'plab durdonalarini rus o'quvchisiga yetkazib, adabiy bog'liqlikning rivojiga katta hissa qo'shgan.

**ASOSIY MATN**

Aleksandr Faynberg o'z she'rlari va tarjimalari orqali ikki xalq o'rtasida ma'naviy yaqinlikni shakllantirgan. Uning lirik qahramoni ko'pincha o'zbek hayotining manzaralari, milliy qadriyatlar, ijtimoiy voqelik va insonning ichki olamini aks ettiradi. Shoirning badiiy tafakkuri rus she'riy maktabi an'analari bilan uyg'unlashib, yangicha poetik yo'nalish yaratadi.

Faynbergning she'riyati har ikki xalq uchun tushunarli bo'lib, unda umumiy insoniy g'oyalar – mehr, adolat, ezgulik, ona mehrining beqiyosligi, Vatanga muhabbat kabi mavzular ustuvor o'rin tutadi. Aynan shu jihatlar Faynbergni ikki xalqni bog'lovchi adabiy ko'priksifatida e'tirof etishga asos beradi. Faynberg lirikasi o'ziga xos, sodda, ammo mazmunan teran bo'lib, unda: tasviriylilik, falsafiy fikrlash, samimiy ifoda, Sharqona mulohazakorlik, Yevropa lirikasiga xos aniqlik uyg'unlashgan. Shoir badiiy tasvir vositalaridan – tashbeh, istiora, jonlantirish, zidlash kabi san'atlardan mahorat bilan foydalanadi. U she'rlarida tabiat manzaralarini inson ruhiyati bilan bog'lab, o'quvchini fikrlashga undaydi. Faynbergning ona haqqidagi she'rlari alohida e'tiborga sazovor. Unda ona siymosi nafaqat oilaviy obraz, balki Vatanning timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

Faynbergning o'zbek-rus adabiy aloqalaridagi eng katta xizmatlaridan biri — tarjimonlikdir. Shoir o'zbek adabiyotining ko'plab namoyandalarini rus o'quvchisiga tanitib, milliy adabiy merosimizni keng targ'ib qilgan. U Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Mirtemir va boshqa ko'plab shoirlarning asarlarini mahurat bilan tarjima qilgan. Tarjimalarida Faynberg ritm, ohang, mazmun va badiiy ruhi saqlanishiga alohida e'tibor qaratgan. Uning tarjimalari tufayli o'zbek adabiyoti rus zabon hududlarda kengroq tanildi, bu esa ikki xalq madaniy aloqalarining mustahkamlanishiga xizmat qildi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Faynberg o'zbek va rus adabiyotini birlashtirgan, ikki xalq madaniyatini yaqinlashtirgan ijodkor sifatida tarixda munosib o'rin egallaydi. Uning she'rlari halollik, samimiylilik, insoniylik va ma'naviy poklik ruhi bilan sug'orilgan. Tarjimon sifatidagi faoliyati esa o'zbek adabiyotining dunyoga yuzlanishiga katta imkoniyat yaratdi. Faynbergning madaniy merosi bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, uni o'rganish va targ'ib qilish yosh avlod uchun muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

### **REFERENCES:**

1. Feinberg, A. Selected Poems. Moscow: 1998.
2. Oripov, A. She'r san'ati va ma'naviyat haqida fikrlar. Toshkent, 2004.
3. Karimov, D. XX asr o'zbek-rus adabiy aloqalari. Toshkent, 2017.
4. Ziyouz.com — Aleksandr Faynberg haqidagi maqolalar.
5. Wikipedia — “Aleksandr Faynberg” sahifasi.
6. Matyoqubova, S. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2020.
7. Mardonova, N. — Aleksandr Faynberg haqidagi maqola, 2-bet.